



## SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2023- yil  
yanvar-oktabr

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)



Xizmatlar sohasida  
kichik tadbirkorlik  
ulushi -  
**63,6 %**



Aholi jon  
boshiga  
xizmatlar  
hajmi –  
**4385,3**  
ming so'm




Xizmatlar  
sohasidagi  
korxonalar va  
tashkilotlar  
ulushi - **67,8 %**




**Xizmatlar sohasi bu** – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(1- noyabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar


(yanvar-oktabr)

Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1- noyabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




## Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-oktabr)



## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi <sup>1)</sup> (yanvar-oktabr)



### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2023- yil yanvar-oktabr)




<sup>1)</sup> Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup></b>	12 421,8	100,0	109,6
Termiz sh.	3 545,1	28,6	109,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	499,2	4,0	109,1
Angor	527,0	4,2	108,1
Boysun	387,7	3,1	109,3
Bandixon	276,4	2,2	108,4
Muzrabot	543,2	4,4	108,5
Denov	1 603,9	12,9	111,2
Jarqo'rg'on	677,2	5,5	107,7
Qumqo'rg'on	731,7	5,9	106,2
Qiziriq	462,2	3,7	109,6
Sariosiyo	743,1	6,0	110,0
Termiz	579,7	4,7	111,2
Uzun	512,4	4,1	108,4
Sherobod	661,5	5,3	109,8
Sho'rchi	671,5	5,4	113,6

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) qiymat vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.


## Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



## Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajmi, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>4 385,3</b>	<b>107,0</b>
Termiz sh.	17 913,4	106,3
Oltinsoy		
Angor	3 721,7	105,8
Boysun	3 154,4	107,2
Bandixon	3 386,5	105,6
Muzrabot	3 582,9	106,1
Denov	3 878,0	108,4
Jarqo'rg'on	2 889,3	105,1
Qumqo'rg'on	2 909,4	103,8
Qiziriq	3 779,3	107,2
Sariosiyo	3 310,1	107,5
Termiz	6 967,1	108,3
Uzun	2 769,9	106,0
Sherobod	3 181,8	107,5
Sho'rchi	2 984,4	110,9

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **63,6** foizni, shu jumladan, **16,1** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

## Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-oktabr)

### Surxondaryo viloyati- 7903,5

Termiz sh – 1 575,6	Angor – 401,0
Denov – 974,1	Oltinsoy – 389,9
Sariosiyo – 500,4	Uzun – 385,7
Jarqo'rg'on – 499,1	Termiz – 382,3
Sherobod – 492,9	Qiziriq. – 375,7
Sho'rchi – 476,9	Boysun – 309,9
Qumqo'rg'on – 473,1	Bandixon – 231,5
Muzrabot – 435,3	

Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlikning umumiy hajmida **44,4** foiz yoki **1 575,6** mlrd. so'm Termiz shahriga to'g'ri keldi.




## Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>12 421,8</b>	<b>100,0</b>	<b>109,6</b>
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	623,6	5,0	125,4
Moliyaviy xizmatlar	2 760,3	22,2	116,4
Transport xizmatlari	1 840,6	14,8	110,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 646,3	13,3	101,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	400,4	3,2	104,8
Savdo xizmatlari	4 308,3	34,7	105,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	301,4	2,4	100,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	656,4	5,3	120,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	164,8	1,4	103,2
Ijara xizmatlari	230,6	1,9	96,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	312,4	2,5	101,2
Shaxsiy xizmatlar	363,0	2,9	107,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	188,5	1,5	100,4
Boshqa xizmatlar	271,5	2,2	101,1

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


## Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)




## Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2023- yil yanvar-oktabr)



## Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-oktabr)





Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **46,3** foizni yoki **1 278,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan Termiz shahrida yuqori o'sish sur'ati **114,5 %** ni tashkil etdi.

# Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

## Transport xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida transport xizmatlarining ulushi – **14,8 %**.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **328,9** mlrd. so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **109,9 %** ni tashkil et-gan.

## Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2023- yil yanvar-oktabr)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

## Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)

**2023- yil yanvar-oktabr oylarida** avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 646,3** mlrd. so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,3 %** ni tashkil etdi



Surxondaryo viloyati <sup>1)</sup>	1 646,3
Termiz sh	293,3
Denov	193,1
Sariosiyo	112,5
Qumqo'rg'on	107,3
Sherobod	106,9
Jarqo'rg'on	106,0
Sho'rchi	95,2
Angor	90,8
Uzun	85,7
Muzrabot	83,4
Qiziriq	82,2
Oltinsoy	80,6
Termiz	79,6
Boysun	73,8
Bandixon	55,9

Hajmi, mlrd. so'mda

## Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

(2023- yil yanvar-oktabr)



## Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-oktabr)

66,1 %

Yo'lovchi tashish

33,9 %

Yuk tashish

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## 2023- yilning yanvar-oktabr

o'ylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatining ulushi **34,7** foizni tashkil etdi.


## Savdo xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)



## Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2023- yil yanvar-oktabr)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2023- yilning yanvar-oktabr** oylarida ularning ulushi **96,1** foizni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd.so'mda ● O'sishi

## OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2023- yil yanvar-oktabr)

Nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
<b>Jami</b>	<b>623,6</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:		
<b>AKT xizmatlari sektori</b>	<b>608,8</b>	<b>97,6</b>
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	584,7	96,1
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	24,1	3,9
<b>Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori</b>	<b>14,8</b>	<b>2,4</b>
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	9,5	64,2
Kino - videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	1,0	6,7
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	1,1	7,4
Boshqa axborot xizmatlari	3,2	21,7

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)




## 2023- yilning yanvar-oktabr

oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlar ulushi **5,3 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2023- yil yanvar-oktabr)






## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi 1,4 foizni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr)



## Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning ulushi **2,4** foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2023- yil yanvar-oktabr)



<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi +0,1 %


## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

### 2023- yilning yanvar-oktabr

o'ylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushi – 3,2 foiz.



## Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr)




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi

## Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar-oktabr)



## Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)




2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 78,5 mlrd. so'mga oshib, 230,6 mlrd. so'm-ga yetdi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ijara xizmatlarning ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.




<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

## Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr)




2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining ulushi **2,5** foizini tashkil etadi.

## Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr)



## Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



## Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)

Surxondaryo viloyati.	188,5
Termiz sh	150,9
Denov	9,8
Qumqo'rg'on	7,3
Sariosiyo	2,9
Jarqo'rg'on	2,2
Sho'rchi	2,1
Sherobod	1,9
Uzun	1,8
Muzrabot	1,8
Termiz	1,6
Angor	1,6
Oltinsoy.	1,4
Qiziriq	1,4
Boysun	1,2
Bandixon	0,6

**2019- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **109,5** mlrd. so'mga oshib, **188,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **80,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Tel.: 76-225-65-91

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Transport xizmatlarining hajmi** amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

**Avtomobil transporti xizmatlariga** temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

**Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari** hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi** amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

**Telekommunikatsiya xizmatlari** bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

**“Ta’lim” seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

**Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi**, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni** ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

**Ijara xizmatlari** bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

**Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi** bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

**Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar** hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.